

UDK: 8144

AVIATSIYA TERMINLARINI TARTIBGA SOLISH MASALALARI

Ra'no Ergashova To'rayevna,

O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti

Harbiy aviatsiya instituti professori

E-mail: ergashova-91@mail.ru

ORCID ID: 0000-0003-0542-434X

Annotatsiya. Ushbu maqolada aviatsiya terminlarini tartibga solish masalalari, xususan, terminlarning semantik, morfologik va funksional xususiyatlari hamda sohaviy diskursdagi kommunikativ vazifalari tahlil etilgan. Aviatsiya terminlarini standartlashtirish jarayonining lingvistik mexanizmlari terminlarning unifikatsiyasi, kodifikatsiyasi, normativlashuvi, shuningdek, termin komponentlarining tizimli tashkil etilishi va ularning semantik aniqligi masalalari yoritilgan. Ingliz, rus va o'zbek tillarida qo'llaniladigan aviatsiya terminlari chog'ishtirma tahlil qilinib, ularning strukturaviy modellaridagi umumiylik va tafovutlar aniqlangan, interlingval moslashuv va terminologik ekvivalentlik muammolari asoslangan. Shuningdek, aviatsiya terminologiyasini standartlashtirish zarurati murakkab texnik tushunchalarni aniq va bir ma'noli ifodalash, professional kommunikatsiyada terminologik barqarorlikni ta'minlash hamda sohaviy axborot almashinuvida semantik noaniqliklarning oldini olish kabi omillar bilan izohlangan. Tadqiqot natijasida aviatsiya terminologiyasini standartlashtirishning asosiy lingvistik mezonlari aniqlashtirilib, terminologik tizimni optimallashtirish va me'yoriy bazani takomillashtirishga qaratilgan ilmiy xulosalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: aviatsiya terminologiyasi, variantlilik, standartlashuv, ICAO, IATA, lingvistik xususiyatlar, terminologik tizim, chog'ishtirma tahlil.

Abstract. This article examines the aspects of standardization of aviation terminology, with particular emphasis on the semantic, morphological, and functional characteristics of terms, as well as their communicative roles in specialized discourse. The linguistic mechanisms of aviation terminology standardization are analyzed, including the unification, codification, and normalization of terms, as well as the systematic organization of term components and their semantic precision. A comparative analysis of aviation terms used in English, Russian, and Uzbek is carried out, identifying similarities and differences in their structural models and substantiating issues related to interlingual adaptation and terminological equivalence. Furthermore, the necessity of standardizing aviation terminology is explained by factors such as the precise and unambiguous representation of complex technical concepts, ensuring terminological consistency in professional communication, and preventing semantic ambiguity in domain-specific information exchange. The study identifies the key linguistic criteria for the standardization of aviation terminology and formulates scholarly conclusions aimed at optimizing the terminological system and improving its normative framework.

Keywords: aviation terminology, variation, standardization, ICAO, IATA, linguistic features, terminological system, comparative analysis.

Аннотация. В данной статье рассматриваются аспекты стандартизации авиационной терминологии, в частности анализируются семантические, морфологические и функциональные характеристики терминов, а также их коммуникативные функции в специализированном дискурсе. Исследуются лингвистические механизмы стандартизации авиационной терминологии, включая унификацию, кодификацию и нормализацию терминов, а также системную организацию компонентов терминов и их семантическую точность. На основе сопоставительного анализа авиационных терминов, функционирующих в английском, русском и узбекском языках, выявлены сходства и различия их структурных моделей, а также обоснованы проблемы межъязыковой адаптации и терминологической эквивалентности. Кроме того, необходимость стандартизации

авиационной терминологии объясняется такими факторами, как точное и однозначное выражение сложных технических понятий, обеспечение терминологической стабильности в профессиональной коммуникации и предотвращение семантической неоднозначности в отраслевом информационном обмене. В результате исследования уточнены основные лингвистические критерии стандартизации авиационной терминологии и сформулированы научные выводы, направленные на оптимизацию терминологической системы и совершенствование её нормативной базы.

Ключевые слова: авиационная терминология, вариантность, стандартизация, ICAO, IATA, лингвистические особенности, терминологическая система, сопоставительный анализ.

Kirish. Aviatsiya terminlarini tartibga solish masalasi terminshunoslik doirasida alohida nazariy ahamiyatga ega bo‘lib, u til tizimi bilan maxsus professional soha o‘rtasidagi murakkab va ko‘p qatlamli munosabatlarni yoritadi. Terminlarni tartibga solish jarayoni muayyan fan yoki texnika yo‘nalishida qo‘llanadigan atamalarning tasodifiy qo‘llanishini emas, balki ularning tizimli ravishda shakllantirilishi, semantik aniqligi, tashqi shakli va amaliy qo‘llanish chegaralarining aniq belgilanishini nazarda tutadi. Aviatsiya sohasi esa yuqori darajadagi xavfsizlik, aniqlik va tezkorlik talab qilgani bois, bu yerda terminologik tartib masalasi oddiy lingvistik hodisa sifatida emas, balki amaliy va ijtimoiy mas‘uliyat bilan bog‘liq jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili. Aviatsiya terminlarini tartibga solishning muhim nazariy asoslaridan biri terminologik tizim tushunchasi bilan bog‘liq. Ushbu tizim doirasida terminlarga alohida-alohida mavjud bo‘lgan birliklar emas, balki o‘zaro semantik, funksional va mantiqiy munosabatlar orqali bog‘langan elementlar sifatida qaraladi. Parvoz jarayoniga va havo harakatini boshqarishga doir terminlar yoki texnik ekspluatatsiya bilan bog‘liq tushunchalar alohida kichik tizimlarni tashkil etib, umumiy aviatsiya terminologiyasining ichki tuzilishini shakllantiradi. Terminlarni tartibga solish jarayonida aynan shu ichki bog‘liqlikni hisobga olish va uni buzmaslik lozim.

Terminologiyani tartibga solish bilan bog‘liq eng dolzarb muammolardan biri terminologik me‘yor masalasidir. Terminologik me‘yor umumtil normasidan sezilarli darajada farq qiladi. Umumxalq tilida sinonimiya hamda variantlilikka ma‘lum darajada yo‘l qo‘yilsa, aviatsiya terminologiyasida bunday holat cheklangan bo‘lishi zarur, chunki aviatsiya sohasida bir tushunchaning turli nomlar bilan ifodalanishi noto‘g‘ri talqin, axborot uzilishlari va hatto xavfsizlikka tahdid soluvchi holatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli terminologik normaning qat‘iyligi aviatsiya terminologiyasining ajralmas nazariy va amaliy talabi ekanligini ko‘rsatmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Qiyosiy-lingvistik tahlil aviatsiya terminologiyasida tarjima jarayonining bir xil mexanizm asosida amalga oshmasligini yaqqol ko‘rsatadi. Aviatsiya terminlarining muayyan qismi ingliz tilidan rus va o‘zbek tillariga **to‘liq ekvivalentlik asosida** o‘giriladi va bunda termin ifodalagan tushunchaning mazmuni o‘zgarmasdan saqlanadi. Masalan, *altitude* – *высота* – *balandlik*, *airspace* – *воздушное*

пространство – *havo hududi*, *flight crew* – *лётный экипаж* – *parvoz ekipaji* kabi terminlar uch tilda ham bir xil tushunchani ifodalaydi. Bunday birliklar semantik jihatdan barqaror bo‘lib, tarjima jarayonida na ma’no yo‘qotiladi, na qo‘shimcha izohga ehtiyoj tug‘iladi. Aynan shu turdagi terminlar aviatsiya terminologiyasini milliy tillarda tizimlashtirish va me‘yorlashtirishda tayanch qatlamni tashkil etadi.

Tahlillar va natijalar. Aviatsiya terminlarini tartibga solishda yana bir muhim jihat lingvistik va texnik me‘yor o‘rtasidagi munosabat masalasidir. Har doim ham til tizimiga to‘liq mos keladigan termin texnik jihatdan qulay yoki aniqligi yuqori bo‘lavermaydi. Ba’zi hollarda texnik zarurat tufayli til uchun noodatiy bo‘lgan birliklar professional muloqotda mustahkam o‘rin egallaydi. Shu nuqtayi nazardan aviatsiya terminologiyasini tartibga solish jarayoni faqat tilshunoslar doirasida emas, balki soha mutaxassisleri bilan hamkorlikda olib borilishi zarur bo‘lgan kompleks jarayon sifatida baholanadi. Shuningdek, terminologiyada standartlashuv tushunchasi ham alohida o‘rin tutadi. Standartlashuv terminlarning yagona shaklda va barqaror ma’noda qo‘llanishini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, aviatsiya sohasida bu jarayon ko‘pincha xalqaro miqyosda amalga oshiriladi. Xalqaro aviatsiya tashkilotlari tomonidan belgilangan terminlar va ularning qo‘llanish qoidalari milliy terminologiyani shakllantirishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois aviatsiya terminologiyasini tartibga solish jarayoni doimo xalqaro standartlar bilan uzviy bog‘liq holda kechadi.

Aviatsiya terminlarini tartibga solishda funksional mezon ham muhim ahamiyat kasb etadi. Termin faqat til birligi sifatida emas, balki muayyan kommunikativ vazifani bajaruvchi vosita sifatida baholanadi. Bu holat, avvalo, aviatsiya sohasining xalqaro xarakterga egaligi, turli mamlakatlar va til vakillarini yagona professional kommunikativ maydonda birlashtirishi bilan izohlanadi. Aviatsiya faoliyati doirasida qo‘llanadigan terminlar parvoz xavfsizligi, texnik aniqlik va tezkor qaror qabul qilish bilan bevosita bog‘liq bo‘lganligi sababli ularning semantik aniqligi, barqarorligi va tillararo muvofiqligi alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli aviatsiya terminologiyasini tartibga solish masalasiga faqat lingvistik muammo emas, balki amaliy va funksional ahamiyatga ega bo‘lgan kompleks jarayon sifatida qaraladi. Mazkur jarayonda ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi aviatsiya terminlarini qiyosiy tahlil qilish muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ingliz tili global aviatsiya muloqotining yetakchi vositasi sifatida terminlarning asosiy manbai vazifasini bajaradi. Rus tili esa uzoq vaqt davomida mintaqaviy aviatsiya tizimida vositachi til sifatida faol qo‘llanib kelingan. O‘zbek tili aviatsiya terminologiyasi mazkur ikki til ta’siri ostida shakllanayotgan, rivojlanish va me‘yorlashuv bosqichida bo‘lgan tizim hisoblanadi. Shu sababli ushbu uch til kesimida terminlarning o‘zaro munosabatini, tarjima imkoniyatlarini va moslashuv mexanizmlarini aniqlash aviatsiya terminologiyasini tartibga solishning muhim sharti hisoblanadi.

Aviatsiya terminlarini tarjima qilish masalasiga yondashishda muhim nazariy omilni e'tiborga olish zarur: har bir termin tarjima qilinishi majbur bo'lgan birlik emas. Terminshunoslik nuqtayi nazaridan tarjima jarayoni terminning shaklini emas, avvalo, uning tushunchaviy mazmunini saqlashga qaratilgan bo'lishi lozim. Xalqaro aviatsiya amaliyotida ayrim terminlarning asl shaklida qo'llanishi terminologik aniqlik va xavfsizlikni ta'minlashning eng samarali yo'li sifatida tan olingan. Bunday terminlarni sun'iy ravishda tarjima qilish ayrim hollarda tushuncha mazmunining buzilishiga yoki kommunikativ chalkashlikka olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, aviatsiya terminologiyasida tarjima jarayoni bir xil xususiyatga ega emas. Aviatsiya terminlari shartli ravishda uch guruhga ajratilishi mumkin:

- a) to'liq tarjima qilinadigan;
- b) qisman moslashtiriladigan;
- c) tarjima qilinmaydigan terminlar.

To'liq tarjima qilinadigan terminlar tushunchaviy jihatdan aniq, milliy til vositalari orqali to'liq ifodalanadigan va xalqaro muloqotda tushuncha mazmunini yo'qotmaydigan birliklardir. Bunday terminlar aviatsiya terminologiyasini milliy tillarda boyitish va tizimlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qisman moslashtiriladigan terminlar esa tarjima va xalqaro shakl o'rtasida muvozanatni saqlaydi. Bunda terminning asosiy mazmuni milliy til orqali ifodalanadi, biroq uning xalqaro komponenti, qisqartmasi yoki grafik shakli saqlanib qoladi. Bu holat aviatsiya terminologiyasida milliylik va xalqaro standartlashuv o'rtasidagi murosaviy yondashuvni aks ettiradi. Aynan ushbu turdagi terminlar ingliz, rus va o'zbek tillari o'rtasidagi terminologik aloqalarning eng faol qatlamini tashkil etadi.

Tarjima qilinmaydigan terminlar esa aviatsiya terminologiyasining global qatlamini tashkil etadi. Ular xalqaro miqyosda standartlashgan, qisqartma yoki signal xarakteriga ega bo'lib, barcha tillarda deyarli o'zgarimas shaklda qo'llanadi. Ushbu terminlarning tarjimasiz qo'llanishi aviatsiya sohasida yagona tushuncha makonini yaratishga xizmat qiladi va kommunikativ xavfsizlikni ta'minlaydi. Shu sababli bunday terminlarni majburiy tarjima qilish terminologiyani tartibga solish emas, balki aksincha, uning izchilligiga putur yetkazishi mumkin.

Bizningcha, aviatsiya terminologiyasini tartibga solish masalasida asosiy vazifa barcha terminlarni bir xilda tarjima qilish emas, balki terminning *funksional vazifasi, xalqaro maqomi va kommunikativ ahamiyatini* hisobga olgan holda qaror qabul qilishdan iborat. Ingliz, rus va o'zbek tillari qiyosida olib borilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, aviatsiya terminologiyasini samarali me'yorlashtirish faqat tarjima jarayoni bilan cheklanmaydi, balki terminlarni to'g'ri tanlash, moslashtirish va normativ jihatdan mustahkamlash orqali amalga oshiriladi. Aynan shu yondashuv aviatsiya terminologiyasining barqaror va izchil rivojlanishini ta'minlaydi.

1- jadval

Aviatsiya terminlarining tarjima qilinish darajasi bo'yicha tasnifi

№	Inglizcha termin	Ruscha ekvivalenti	O'zbekcha ekvivalenti	Izoh
I. To'liq tarjima qilinadigan terminlar				
1	aircraft	воздушное судно	havo kemasi	tushuncha to'liq mos
2	runway	взлётно-посадочная полоса	uchish-qo'nish yo'lagi	semantik ekvivalent
3	airway	воздушная трасса	havo trassasi	milliy tilga mos
4	flight altitude	высота полёта	parvoz balandligi	termin barqaror
5	fuel reserve	запас топлива	yonilg'i zaxirasi	tarjima to'liq
6	civil aviation	гражданская авиация	fuqaro aviatsiyasi	normativ birlik
7	navigation data	аэронавигационные данные	aeronavigatsiya ma'lumotlari	to'liq ifodalanadi
8	emblem	эмблема	tanuq	milliy tilga mos
9	attack	атака	hujum	tarjima to'liq
10	body armor	бронежилет	zirhnimcha	milliy tilga mos
11	trench	окоп	xandaq	milliy tilga mos
12	tribunal	трибунал	harbiy mahkama	tarjima to'liq
II. Qisman tarjima qilinadigan (moslashtiriladigan) terminlar				
1	instrument landing system	инструментальная система посадки	instrumental qo'nish tizimi (asbob-uskunalar yordamida)	moslashtirilgan
2	air traffic control(atc)	управление воздушным движением(увд)	havo harakatini boshqarish(hhb)	moslashtirilgan
3	flight manual	руководство по лётной эксплуатации	parvozdan foydalanish qo'llanmasi	qisman tarjima
4	aerodrome chart	аэродромная карта	aerodrom chizmasi	funksional moslik
5	gas mask	противогаз	gazniqob	moslashtirilgan
6	checkpoint	блокпост	to'siqpost	funksional mos
III. Tarjima qilinmaydigan (xalqaro) terminlar				
1	ICAO	ICAO / ИКАО	ICAO	Xalqaro tashkilot
2	IATA	IATA	IATA	Tarjimasiz
3	SOS	SOS	SOS	Signal termin
4	MAYDAY	MAYDAY	MAYDAY	Radio signal
5	GPS	GPS	GPS	Texnologik termin

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, aviatsiya terminologiyasini tartibga solish jarayonida tarjima masalasi bir xil va universal xarakterga ega emas. To'liq tarjima qilinadigan terminlar asosan konkret predmet va jarayonlarni ifodalovchi, milliy til vositalari orqali

tushuncha mazmunini to'liq aks ettira oladigan birliklardan iborat. Bunday terminlar aviatsiya terminologiyasini milliy tillarda rivojlantirish va tizimlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Qisman tarjima qilinadigan terminlar aviatsiya terminologiyasining eng faol va murakkab qatlamini tashkil etadi. Ushbu guruh terminlarida tarjima va xalqaro standartlashuv o'rtasida muvozanat saqlanadi, ya'ni terminning mazmuni milliy til orqali ifodalanadi, biroq uning qisqartma yoki xalqaro shakli aslicha saqlanib qoladi. Bu holat aviatsiya sohasida milliylik va global kommunikativ talablarning o'zaro uyg'unlashuvini aks ettiradi.

Tarjima qilinmaydigan terminlar esa aviatsiya terminologiyasining global yadrosini tashkil etib, barcha tillarda deyarli o'zgarmas shaklda qo'llanadi. Ushbu terminlarning tarjimasiz qo'llanishi aviatsiya xavfsizligi, aniqlik va tezkorlik talablaridan kelib chiqadi hamda terminologik izchillikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Shuni ham inobatga olish kerakki, aviatsiya terminologiyasining barcha birliklari ham to'liq tarjima qilishga yaroqli emasligi qiyosiy tahlil jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Xalqaro aviatsiya amaliyotida ayrim terminlar va qisqartmalar tarjimasiz, aslicha shaklda qo'llanishi belgilangan. Masalan, *ILS*, *VOR*, *DME*, *ADS-B*, *SSR* kabi terminlar ingliz, rus va o'zbek tillarida deyarli bir xil grafik va fonetik ko'rinishda ishlatiladi. Bu holat, avvalo, aviatsiya xavfsizligi, aniqlik va tezkorlik talablaridan kelib chiqadi. Mazkur terminlarni sun'iy ravishda tarjima qilish xalqaro muloqotda tushunmovchiliklar keltirib chiqarishi, ayrim vaziyatlarda esa noto'g'ri talqinga olib kelishi mumkin. Shu sababli bunday terminlarning tarjimasiz qo'llanishi terminologik nuqtayi nazardan o'zini oqlagan yondashuv hisoblanadi [1].

Aviatsiya terminologiyasida, yuqorida ta'kidlaganimizdek, qisman tarjima va moslashtirish asosida qo'llanadigan birliklar ham muhim o'rin egallaydi. Bunda terminning asosiy tushunchaviy mazmuni milliy til vositalari orqali ifodalanadi, biroq uning xalqaro identifikatori qisqartma yoki standart belgi saqlab qolinadi. Masalan, *navigation aid* termini rus tilida *навигационное средство*, o'zbek tilida *navigatsiya vositasi* shaklida beriladi, ammo *NAVAID* qisqartmasi barcha tillarda o'zgarmas shaklda qo'llanadi. Xuddi shuningdek, *standard departure* termini *стандартный вылет* va *standart uchish* shaklida tarjima qilinsa-da, *SID* qisqartmasi xalqaro amaliyotda saqlanib qoladi. Bu holat aviatsiya terminologiyasida milliy til imkoniyatlari bilan global standartlar o'rtasida muvozanat mavjudligini ko'rsatadi.

O'zbek tilida aviatsiya terminologiyasini tartibga solish jarayonida esa bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan, ayrim tushunchalarning inglizcha, ruscha va o'zbekcha variantlarda parallel qo'llanishi terminologik barqarorlikni ta'minlashni murakkablashtiradi. Masalan, *glide path* terminining *глуссада* shakli bilan bir qatorda o'zbekcha *qo'nish trayektoriyasi* varianti uchrashi yoki *taxiway* tushunchasining

рулёжная дорожка va *harakat yo‘lagi* ko‘rinishlarida qo‘llanishi yagona normaning yo‘qligidan dalolat beradi. Bunday holatlar aviatsiya terminologiyasida normativlik masalasini dolzarb muammo sifatida kun tartibiga olib chiqadi. Shu bois aviatsiya terminlarini tartibga solishda qiyosiy-lingvistik yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi aviatsiya terminlarini tizimli qiyoslash orqali qaysi terminlar to‘liq tarjima qilinishi mumkinligi, qaysilari qisman moslashtirilishi lozimligi va qaysi birliklar termin mansub tildagi shaklida saqlanishi zarurligi aniqlanadi. Bunday yondashuv aviatsiya terminologiyasini tartibsiz tarjimalardan xoli qilish, milliy til imkoniyatlarini hisobga olgan holda xalqaro standartlarga moslashtirish va terminologik izchillikni ta‘minlash imkonini beradi. Aviatsiya terminologiyasini me‘yorlashtirish jarayonida asosiy vazifa barcha terminlarni bir xil yondashuv asosida tarjima qilish emas, balki har bir terminning funksional vazifasi, qo‘llanish sohasi va xalqaro maqomini hisobga olgan holda ongli tanlov qilishdan iboratdir. Aynan shu yondashuv aviatsiya terminologiyasining izchil rivojlanishini, xavfsiz va samarali professional muloqotni ta‘minlashga xizmat qiladi. Aviatsiya terminologiyasini tartibga solish jarayonida barcha terminlarni majburiy ravishda tarjima qilish emas, balki terminning funksiyasi, xalqaro maqomi va kommunikativ xavfsizlik darajasi asosida qaror qabul qilish ilmiy va amaliy jihatdan eng to‘g‘ri yondashuvdir. Ingliz, rus va o‘zbek tillari qiyosida olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, aviatsiya terminologiyasini samarali tartibga solish faqat tarjima bilan emas, balki terminlarni to‘g‘ri tanlash, moslashtirish va standartlashtirish orqali amalga oshiriladi.

Aviatsiya terminologiyasini tartibga solish jarayonida eng murakkab va ko‘p bahs-munozaralarga sabab bo‘ladigan masalalardan biri terminlarning variantlilik muammosidir. Variantlilik deganda bir xil tushunchaning bir nechta termin yoki termin shakllari orqali ifodalanishi tushuniladi. Umumtil tizimida bunday holat tabiiy va hatto rivojlanish belgisi sifatida baholanishi mumkin bo‘lsa-da, aviatsiya kabi yuqori aniqlik va xavfsizlik talab etuvchi sohada terminologik variantlilik jiddiy muammo sifatida namoyon bo‘ladi.

Aviatsiya terminologiyasida variantlilik, avvalo, bir tushuncha bir nechta termin holatida yuzaga chiqadi. Bunday vaziyatda terminlar semantik jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lsa-da, ularning qo‘llanish doirasi, funksional yuklamasi yoki manbai turlicha bo‘lishi mumkin. Ingliz, rus va o‘zbek tillari kesimida olib borilgan qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, aynan o‘zbek tilida bu holat eng ko‘p uchraydi. Sababi, o‘zbek aviatsiya terminologiyasi shakllanish bosqichida bo‘lib, u bir vaqtning o‘zida xalqaro va mintaqaviy manbalardan oziqlanmoqda.

Variantlilikning yana bir keng tarqalgan ko‘rinishi to‘liq termin, qisqartma va ruscha shaklning parallel qo‘llanishidir. Masalan, aviatsiya hujjatlarida yoki professional muloqotda bir tushuncha ba‘zan to‘liq o‘zbekcha termin orqali, ba‘zan xalqaro qisqartma

orqali, ba'zan esa rus tilidan o'zlashgan shaklda ifodalanadi. Bu holat terminologik tizimda izchillikni susaytiradi va terminning qaysi shakli normativ ekanini aniqlashni qiyinlashtiradi. Ayniqsa, yozma va og'zaki professional diskursda turli variantlarning aralash qo'llanishi kommunikativ noaniqlikka olib keladi.

Aviatsiya terminologiyasida parallel nomlanishlar ham variantlilik muammosining muhim ko'rinishlaridan biridir. Parallel nomlanishlar ko'pincha turli tillar yoki turli termin yasash modellari asosida yuzaga keladi. Masalan, bir tushuncha uchun tarjima yo'li bilan yaratilgan termin va o'zlashma termin bir vaqtning o'zida ishlatilishi mumkin. Bunday holat, ayniqsa, texnik hujjatlar, o'quv-metodik materiallar va normativ matnlarda sezilarli darajada uchraydi. Natijada terminologik tizimda qat'iy ierarxiya shakllanmaydi [5].

Variantlilikning vujudga kelish sabablari bir nechta omillar bilan izohlanadi. Birinchi navbatda, aviatsiya terminologiyasining ko'p manbaliligi muhim rol o'ynaydi. Ingliz tili xalqaro manba sifatida, rus tili esa tarixiy va mintaqaviy vositachi sifatida o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Ikkinchi sabab – terminlarni yaratish va tasdiqlash bo'yicha markazlashgan mexanizmning yetarli darajada shakllanmaganligidir. Uchinchidan, aviatsiya sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislarning til kompetensiyasi va termin tanlashdagi individual yondashuvlari ham variantlilikni kuchaytiradi.

Gap terminologik variantlilik haqida ketar ekan, terminlar ichidagi qaysi variant ustuvor bo'lishi kerak degan savolning tug'ilishi tabiiy. Nazariy jihatdan aviatsiya terminologiyasida ustuvorlik bir necha mezon asosida belgilanadi:

1) *terminning xalqaro standartlarga mosligi*. Agar termin xalqaro aviatsiya amaliyotida qat'iy belgilangan bo'lsa, uning asl yoki qisqartma shakli ustuvor hisoblanadi;

2) *aniqlik va bir ma'nolilik*. Qaysi variant tushunchani eng aniq va chalkashliksiz ifodalasa, o'sha shakl normativ maqomga ega bo'lishi lozim;

3) *funksional qulaylik*, ya'ni terminning professional muloqotda tez va samarali qo'llanish imkoniyati.

Variantlilik muammosining eng muhim jihatlaridan biri uning aviatsiya xavfsizligiga ta'siri bilan bog'liq. Aviatsiya sohasida terminologik noaniqlik noto'g'ri talqinlarga, kechikkan qarorlarga yoki xato tushunishga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, radioaloqa, parvozlarni boshqarish va favqulodda vaziyatlar bilan bog'liq diskursda terminlarning turli variantlarda qo'llanishi xavfli holatlarni yuzaga keltirishi ehtimoldan xoli emas. Shu sababli aviatsiya terminologiyasida variantlilik oddiy lingvistik hodisa sifatida emas, balki xavfsizlikka bevosita ta'sir etuvchi omil sifatida baholanishi lozim. Bundan kelib chiqadiki, aviatsiya terminlarini tartibga solishda variantlilikni cheklash va boshqarish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Biroq bu jarayon terminologiyani sun'iy ravishda "qotirib qo'yish"ni anglatmaydi. Aksincha, maqsad – mavjud variantlar ichidan eng maqbulini tanlash, qolganlarini esa izohli yoki ikkilamchi birlik sifatida belgilashdan

iborat. Bunday yondashuv terminologik tizimda barqarorlikni ta'minlash bilan birga uning tabiiy rivojlanishiga ham to'sqinlik qilmaydi.

2 - Jadval

Aviatsiya terminlarida variantlilik va ustuvor shakllarni belgilash

№	Tushuncha	Variantlar	Ustuvor shakl	Ustuvorlik asoslari
1	Minimal xavfsizlik balandligi	minimal balandlik / xavfsiz balandlik / MSA	minimal xavfsizlik balandligi (MSA)	Semantik aniqlik + xalqaro kod
2	Parvoz darajasi	parvoz darajasi / balandlik darajasi / flight level	parvoz darajasi (FL)	Xalqaro qo'llanish ustuvor
3	Havo kemasining texnik holati	texnik holat / texnik tayyorgarlik / airworthiness	havo kemasining texnik holati (Airworthiness)	Rasmiy-texnik aniqlik
4	Dispetcherlik ruxsati	ruxsat / dispetcher ruxsati / clearance	dispetcherlik ruxsati (Clearance)	Professional diskursga mos
5	Zaxira aerodrom	zaxira aerodrom / alternativ aerodrom	zaxira aerodrom	Funksional ustuvorlik
6	Parvoznig kechikishi	kechikish / ushlanish (delay)	parvoz kechikishi	Tushuncha aniqligi
7	Meteorologik ko'rinish masofasi	ko'rinish / ko'rish masofasi / visibility	meteorologik ko'rinish masofasi	Ilmiy-texnik to'liqlik
8	Bort jihozlari majmuasi	bort uskunalari / avionika	bort jihozlari majmuasi	Texnik umumlashtirish
9	Favqulodda vaziyat	favqulodda holat / emergency / avariya vaziyati	favqulodda vaziyat	Xalqaro-rasmiy moslik

2- jadval aviatsiya terminologiyasida variantlilik muammosining yana bir muhim qatlamini ochib beradi. Jadvalda keltirilgan terminlar texnik ekspluatatsiya, parvozlarni boshqarish, meteorologik ta'minot va xavfsizlik bilan bevosita bog'liq bo'lib, aynan ushbu sohalarda terminologik aniqlik alohida ahamiyat kasb etadi. Variantlar orasidan ustuvor shaklni tanlashda xalqaro standartlarga moslik, semantik to'liqlik va professional diskursdagi qo'llanish chastotasi asosiy mezon sifatida namoyon bo'ladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik hollarda milliy termin xalqaro birlik bilan birgalikda qo'llanishi eng maqbul yechim hisoblanadi [4].

Xulosa. Aviatsiya terminologiyasini tartibga solish masalasi faqat texnik yoki sof lingvistik doira bilan cheklanib qolmaydi, balki inson faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan murakkab jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Aviatsiya tizimi inson tomonidan boshqariladigan, qarorlar qisqa vaqt ichida va yuqori aniqlik bilan qabul qilinadigan muhit bo'lgani sababli bu jarayonda qo'llanadigan terminlar alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan aviatsiya terminlari terminologik tizimning oddiy unsuri emas, balki

uchuvchi, dispatcher va muhandis kabi mutaxassislarning fikrlash jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi kognitiv vosita sifatida qaralishi lozim.

Aviatsiya sohasida faoliyat olib boruvchi mutaxassislar terminlarni odatiy til birligi sifatida emas, balki aniq vazifani bildiruvchi signal yoki ko'rsatma sifatida qabul qiladi. Uchuvchi uchun termin muayyan harakatni bajarish zaruratini anglatadi, dispatcher uchun esa u havo harakatini muvofiqlashtirish jarayonida boshqaruv signali vazifasini bajaradi. Muhandis-texnik xodimlar esa termin orqali texnik holatni baholaydi, nosozliklarni aniqlaydi va tegishli choralarni belgilaydi. Shu sababli bir xil termin turli professional guruhlar tomonidan turlicha funksional va kognitiv kontekstda idrok etilishi mumkin.

Inson omili nuqtayi nazaridan aviatsiya terminologiyasida eng xavfli holatlardan biri terminning noto'g'ri yoki noaniq talqinga sabab bo'lishidir. Agar termin semantik jihatdan aniq chegaralanmagan bo'lsa yoki bir nechta shaklda qo'llansa, mutaxassis uni turlicha tushunishi mumkin. Aviatsiya sharoitida bunday farqlar qaror qabul qilish jarayonida kechikishga, buyruqlarning noto'g'ri bajarilishiga yoki favqulodda vaziyatlarda noadekvat javob berilishiga olib kelishi ehtimolini oshiradi. Shu bois terminologik aniqlik aviatsiya xavfsizligini ta'minlashning ajralmas omili sifatida baholanadi.

Terminologik noaniqlik inson xatosining yuzaga kelishida muhim sabablar qatoriga kiradi. Aviatsiya xavfsizligi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar inson xatosi ko'pincha texnik nosozliklarga nisbatan yuqoriroq xavf manbai ekanini ko'rsatadi. Terminlarning variantlilik asosida qo'llanishi, turli tillar yoki kommunikativ muhitlarda har xil shaklda ishlatilishi axborotni qabul qilish va qayta ishlash jarayonini murakkablashtiradi. Ayniqsa, radioaloqa sharoitida terminologik noaniqlik eshitish, tushunish va ijro etish zanjirida uzilishlarga olib kelishi mumkin.

Aviatsiya terminlarini tartibga solishda inson omilini hisobga olish, avvalo, terminlarning kognitiv jihatdan qulay bo'lishini ta'minlashni anglatadi. Terminlar qisqa, ravshan va bir ma'noli bo'lishi, favqulodda vaziyatlarda tez va xatosiz idrok etilishi zarur. Shu sababli aviatsiya terminologiyasida ortiqcha sinonimlar, murakkab grammatik shakllar va ma'nosi noaniq birliklardan foydalanish cheklanishi lozim. Bu esa terminologiyani faqat lingvistik mezonlar asosida emas, balki psixolingvistik va kognitiv yondashuvlar asosida ham tartibga solishni talab qiladi.

Inson omili aviatsiya terminologiyasining ta'lim va tayyorlov tizimi bilan ham chambarchas bog'liq. Uchuvchilar, dispatcherlar va muhandislarni tayyorlash jarayonida terminlarning yagona shakl va barqaror ma'noda o'rgatilishi kelgusida professional faoliyatda izchillikni ta'minlaydi. Agar ta'lim jarayonida terminlar turli variantlarda berilsa, bu real ish faoliyatida chalkashliklar va noto'g'ri talqinlarga sabab bo'lishi mumkin. Ko'rinadiki, aviatsiya terminologiyasini tartibga solish masalasi kasbiy tayyorlov standartlari bilan ham uzviy bog'lanishi zarur.

Inson omiliga oid yana bir muhim jihat – yuqori stress va yuklama sharoitida terminlarni qabul qilish jarayonidir. Aviatsiya faoliyati ko‘pincha kuchli psixologik bosim ostida amalga oshiriladi. Bunday vaziyatlarda inson murakkab yoki ko‘p ma’noli terminlarni chuqur tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi. Shu sababli terminologik tizim stress sharoitida ham barqaror ishlashi, terminlar esa tez va xatosiz idrok etilishi mumkin bo‘lishi lozim. Bu holat aviatsiya terminlarini tartibga solishda xavfsizlikka yo‘naltirilgan yondashuvning muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, aviatsiya terminlarini tartibga solish terminologik aniqlikni ta’minlash, professional muloqot samaradorligini oshirish va inson xatosi xavfini kamaytirish orqali aviatsiya xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Mazkur xulosalar aviatsiya terminologiyasini yanada izchil rivojlantirish va uni me‘yorlashtirishga qaratilgan keyingi ilmiy tadqiqotlar uchun mustahkam metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alekseeva L.M. Английские заимствованные аббревиатуры в русской авиационной терминологии. Вопросы терминологии, 2020, 5(2), 45–53.
2. Баранов А.Н., Добровольский, Д.О. Когнитивная теория терминологии. Москва: Языки славянской культуры. 2017.
3. Cabre M. T. Terminology: Theory, methods and applications. John Benjamins Publishing, 1999. – P. 248.
4. Ergashova R. English for Aviation Purposes. Excellania international multidisciplinary journal Volume 02, Issue 8, 2024. – P.68-71.
5. Goddard A. The language of aviation communication. Routledge. 2011
6. International Air Transport Association. IATA Standard Schedules Information Manual. Montreal: IATA. 2018
7. International Air Transport Association. Airline Designator and Airport Codes Handbook. Montreal: IATA. 2019
8. International Civil Aviation Organization. Manual on the Implementation of ICAO Language Proficiency Requirements. Montreal: ICAO. 2010
9. International Civil Aviation Organization. Doc 4444: Air Traffic Management. Montreal: ICAO. 2016
10. Kim H., Elder C. Understanding aviation English: Issues of proficiency and communicative competence. English for Specific Purposes, 2009 28(4), 200–210.
11. Moder C. L. Aviation English communication: Linguistic and pragmatic features. In English in global aviation. Berlin: De Gruyter. 2013 pp. 93–118
12. Mell T. Aviation English: A linguistic study of air traffic control communication. Oxford: Oxford University Press. 2016.
13. Wüster E. Einführung in die allgemeine Terminologielehre und terminologische Lexikographie. Berlin: De Gruyter. 1979.